

MASHG'ULOTLARDA O'ZBEK VA RUS TILLARIDAGI ERKIN BIRIKMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK QIYOSIY TAHLILI

Beysenova Azoda

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilini o'rgatishda erkin birliklarning tushuntirilishi va o'qitilishida leksik, grammatik, lingvokulturologik jihatlarni hisobga olish haqida fikr yuritiladi. Eski o'zbek tili darsliklaridagi ba'zi kamchiliklar xususida munozara qilinib, yangi darsliklarda talaffuz, grammatik, lingvokulturologik jihatlarga e'tibor berish bo'yicha takliflar beriladi.

Kalit so'z: erkin birikmalar, talaffuz, grammatika, leksika, lingvokulturologiya.

Annotation: in this article, the consideration of lexical, grammatical, linguocultural aspects in the explanation and teaching of free units in the teaching of the Uzbek language is discussed. Some shortcomings of the old Uzbek language textbooks are discussed, and proposals are made to pay attention to pronunciation, grammar, linguistic and cultural aspects in the new textbooks.

Key word: free combinations, pronunciation, grammar, lexicon, linguocultural science

Аннотация: в данной статье рассматривается рассмотрение лексических, грамматических, лингвокультурологических аспектов в объяснении и преподавании свободных единиц при обучении узбекскому языку. Обсуждаются некоторые недостатки старых учебников узбекского языка и вносятся предложения обратить внимание на произношение, грамматику, лингвокультурологические аспекты в новых учебниках.

Ключевые слова: свободные сочетания, произношение, грамматика, лексика, лингвокультурология.

Erkin birikmalarning qamrovi keng bo'lib, u sintaktik bilimlarning debochasi va eng muhimi hisoblanar ekan, mazkur masala bugungi kunda darsliklarda muayyan tazimlilikka asoslanishi kerak. U biror tushuncha, voqelik, borliqdagi hodisaning kichik ifodasi hisoblanadi. Bu o'zbek tiliga xos bo'lgan kompozitsion yo'l bilan yasalgan qo'shma so'zlarning datslabki ko'rinishi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tabiatan dangasa bo'lgan, shu bilan bir qatorda Abdulla Qodiriy ta'biri bilan aytganda, boy o'zbek tili muayyan tushunchani atash o'rniga izoh berish bilan masalani hal qilishga moyil. Masalan, *havo rang, jigarrang, ko'zoynak, oshqozon* va hokazo. Buni o'zga tilli vakiliga tushuntirmasdan o'zbek tilining mohiyatini ochib berish mushkul. Bunda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Talaffuz. Avval, talaffuzni yaxshilaydigan mashq va topshiriqlardan boshlash o‘rinli. Chunki, o‘zbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘rganayotganlar uchun o‘zbek tilidagi ba’zi harflar talaffuzida murakkabliklarga duch keladi. Masalan, ularning ko‘pchiligi *k-q* yoki *g'-q* tovushlari o‘rtasidagi farqni idrok etish va talaffuz qilish oson kechmaydi. Yoki *u-o* hamda *o-o* harflari talaffuzida ham qiynalishadi. Eski darsliklarda 10-sinfda orfoepiyaga e’tibor qaratilgan. Unda ham faqat qoida ya’ni “orfoepiya – bu to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalari, to‘g‘ri talaffuz orfoepiya bo‘limida o‘rganiladi” deb ketilgan.¹ O‘zga tilli sinf o‘quvchilariga o‘zbek tili orfoepik qoidalari juda muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, *qurdi-ko‘rdi* so‘zlari kabi misollar orqali talaffuz me’yorlarini shakllantirish muhim masala. Shuni farqlashga ilk bosqichlardan e’tibor qaratish o‘rinli.

Leksika. Bilamizki, o‘zbek tilida fe’llar, ayniqsa, qo‘shma fe’llar modallik kasb etadi. U turli emotsional xarakterga ega. Masalan, *quladi – qulab tushdi* fe’llarida ma’no jihatidan farq bo‘lib, u rus tilida fe’llarning vid kategoriyasida o‘z aksini topishini va bu so‘z birikmasi emas, balki qo‘shma so‘z, xususan, qo‘shma fe’l ekanligini tushuntirish orqali maqsadga erishish mumkin. Lekin bu farqlar darsliklarda e’tibordan chetda qolgan. O‘zbek tili, ayniqsa, xorijiy til sifatida o‘rgatilayotganda erkin birliklardan farqli o‘laroq qo‘shma fe’llar ham borligini, ular alohida yozilishini tushuntirishda diqqat-e’tibor qaratish kerak. Chunki, *tushib ketti, yiqilib tushdi, kiyib olgan, eshitib yuribdi* kabi qo‘shma fe’llarni ularga tushuntirish ancha muammolidir. Va bu muammoni nafaqat chet tili sifatida balki, ikkinchi til sifatida o‘rgatayotganda ham uchratish mumkin.

Shuningdek, erkin birliklardagi fe’llar bilan turg‘un birliklardagi fe’llarning sinonimik qatorni tashkil etilishini, nutqda har ikkisi ham uchrashini hisobga olgan holda, farqlarni namoyon qilish orqali ikkala variantini ham mashq qildirish katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, *nayni chalish – oyog‘idan chalish*. Maqsad, o‘rganuvchini tezroq o‘zbek tilida gapira olishiga erishish bo‘lsa, shu kabi aktiv so‘z birikmalarini mashqlar orqali o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. 7-sinf yangi darsligida shunga o‘xshash misollar berib ketilgan: *fikr tug‘ildi – fikr paydo bo‘ldi*. [2; 8].² Bunday birikmalarni turg‘un birliklar bo‘limida batafsil tahlilga tortish kerak. Zero, ular leksik qiymatga ega, sintaktik emas.

Grammatika. Grammatika xorijiy tilni o‘qitishda muhim rol o‘ynaydi. Grammatikani yaxshi bilmaslik, o‘quvchi nutqining rivojlanmay qolishiga olib kelishi mumkin. Yangi darsliklar grammatikasi mavzuga oid matnlardan kelib chiqib tuzilgandek tasavvur uyg‘otadi. Nazarimizda, grammatik mavzuga oid matnlar tanlanib, ular ustida ishlash maqsadga muvofiq. Har bir grammatik belgining formulasi

¹ Muxitdinova X. [va boshq.] O‘zbek tili 10-sinf uchun darslik. “Davr nashriyot” – Toshkent, 2017.

² Xidoyatova D. [va boshq.] O‘zbek tili 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. 8-bet

bo'lmis ekan, til o'rganuvchi yo'lini topolmay qolgan sayyohdek "har maqomga yo'rg'alib", muvozanatni yo'qotib qo'yishi mumkin. Shuning uchun, undan butunlay voz kechish munozarali masaladir.

Lingvokulturologiya. Turg'un birliklar garchi sintaktik qoliplarning kichik ko'rinishi bo'lsa ham lingvokulturologik xususiyatlarga ega. Misol uchun, biz bilgan rus va ingliz tillarida man bitishuv munosabatida aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Masalan, *red bag – красная сумка – qizil sumka*. Bu bog'lanishlarda tillarda turli munosabat akslanadi. Ingliz va o'zbek tilida bitishuv, rus tilida moslashuv. Demak, rod kategoriyasining o'zbek tilida yo'qligi, biroq gender munosabat borligini tushuntirishning metodik masalalarini hal qilish kun tartibiga chiqadi: *The poet Uvaisi – поэтесса Увайсий – shoira Uvaysiy*. Shunda, agar maqsad o'quvchini gapirtirish bo'lsa, ko'proq tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalariga urg'u berish, o'zbek tilidagi aktiv va passiv so'z birikmalarining mustahkamlanishiga e'tibor qaratish zarur. O'zbekistonda yashovchi o'zga millat sohiblari buning uddasidan chiqishi tabiiy, zero, o'zbek muhitida ularning tez-tez qo'llanilishi, natijada muloqotda istifoda etilishi muqarrar. Grammtikasiz o'quvchini gapirtirish maqsadida darsliklar yaratilayotgan bo'lsa, nutqda ko'p uchrovchi foal birikmalar va madaniy unsurlar bilan tanishtirish muhim masaladir. To'g'ri, darsliklar O'zbekistonda yashovchi o'quvchilar uchun chiqarilayotgani sababli madaniyatga juda qattiq e'tibor qaratilmagan bo'lishi mumkin. Ya'ni bu bolalarda o'zbek tili muhiti va madaniyatini bevosita kuzatish imkoni mavjud. Lekin barcha o'quvchilarda bunday muhit bor deb ayta olmaymiz. Masalan, chekkaroq hududlarda, o'zbeklar ichida o'sib kelayotgan bolalar o'zbek tilida mukammal gapira oladi. Bunga bir necha hayotiy namunalar keltirish mumkin. Qozoqlar orasida yashovchi bir koreys oilani misol qilib olamiz. Bu oila qozoq millatiga xos bo'lgan til va madaniyat unsurlaridan xabardor. Lekin shahar hududlarida madaniyat to'liqligicha ko'zga tashlanmaydigan joylarda bir millatning ikkinchisiga ta'siri kamroq bo'ladi. Demak, "mashg'ulotlarda o'zbek tilini talabalarning ona tillariga bog'lab, qiyoslab o'rgatish nihoyatda samarali hisoblanadi... bunda til o'rganuvchilarga so'z tartibi mavzusi o'tilayotganda masalan, rus yoki ingliz tilidagi so'zlar tartibiga solishtirib osongina tushuntirish mumkin."³

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limida erkin birliklarni lingvokulturologik qiyosi bir qancha omillarga tayanadi. Bular talaffuz, ya'ni fonetik; leksik; grammatik va lingvokulturologik omillardir. Ular bir-birini taqozo etib, erkin birliklarda o'zbek tilining agglyutinativlik xususiyati qiyosiy aspektida o'zini namoyon qila oladi.

³ Юсупов Азат Атаханович. Ўзбек тилидан ўқув топшириқларини ишлаб чиқишда ўқитувчи маҳорати // Science and Education. 2020. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-tilidan-uv-topshiri-larini-ishlab-chi-ishda-ituvchi-ma-orati>

Фойдаланилган адабиётлар рo'yxати

1. Kadirova X. O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISHDA PEDAGOGIKANING MUHIM JIHLATLARI. // “O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali, Toshkent, “YASHNOBOD NASHR”, 2022 – B. 54-68.
<http://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/15/11>
2. Xidoyatova D. [va boshq.] O‘zbek tili 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022
3. Юсупов Азат Атаханович. Ўзбек тилидан ўқув топшириқларини ишлаб чиқишда ўқитувчи маҳорати // Science and Education. 2020. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-tilidan-uv-topshiri-larini-ishlab-chi-ishda-ituvchi-ma-orati>
4. Muhamedova S., Asilova G., Kadirova X. O‘zbek va rus tillarining qiyosiy tipologiyasi. “Lesson press”. – Toshkent, 2022.
5. Sh.Usmonova. Lingvokulturologiya darslik.-Toshkent,2019